



SCIENCE TIME

G'AFUR G'ULOM – O'ZBEK BOLALAR SHE'RATINING ETUK SHOIRI

MATYOQUBOVA TOZAGUL RAJAPOVNA
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. E-mail: tozagul_matyakubova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'afur G'ulom o'zbek bolalar she'riyatining yetuk ijodkori sifatidagi faoliyati tahlil etilgan. Shoirning bir qator she'rlari tadqiqi orqali poyetik mahoratida kuzatiluvchi o'ziga xosliklar asoslab berilgan. G'.G'ulom qahramonlar nutqini individuallashtirishda xalq og'zaki ijodining mubolag'aga asoslanuvchi hajviy-yumoristik janri bo'lgan lofdan mohirona foydalangani ko'rsatilgan. Maqolada ilgari surilgan fikr-mulohazalardan muayyan nazariy umumlashmalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: bolalar she'riyati, satira, yumor, mubolag'a, didaktika, she'r, misra, lof, askiya, og'zaki ijod.

Аннотация: В данной статье анализируется творчество Гафура Гулама как зрелого творца узбекской детской поэзии. Особенности, наблюдаемые в поэтическом мастерстве поэта, обосновываются путем изучения ряда стихотворений поэта. Показано, что для индивидуализации речи героев Г.Гулам умело использовал комико-юмористический жанр фольклора лóf, основанный на преувеличении. Из высказанных в статье мнений были сделаны определенные теоретические обобщения.

Ключевые слова: детская поэзия, сатира, юмор, преувеличение, дидактика, стихотворение, стих, похвала, аския, устное творчество.

Abstract: This article analyzes the work of Gafur Gulyam as a mature creator of Uzbek children's poetry. The features observed in the poetic skill of the poet are substantiated by studying a number of poems by the poet. It is shown that in order to individualize the speech of the characters, G. Gulam skillfully used the comic-humorous genre of folklore, based on exaggeration, lof. Certain theoretical generalizations were made from the opinions expressed in the article.

Key words: children's poetry, satire, humor, exaggeration, didactic, poem, verse, praise, askiya, oral creativity.

KIRISH.

G'.G'ulom ijodiy merosida bolalarga atalgan she'rlar alohida o'rin tutadi. Bunday she'rlarida shoir o'z estetik idealini tashviqiy-didaktik tarzda ilgari surgan. Sharqona baholash prinsiplarida sobit turib, masalani axloqiy lashtirgan. Chunki shoir ijodiy ta'sirlangan Sharq adabiyotining "Guliston", "Bo'ston" (Sa'diy), "Qobusnoma" (Kaykovus), "Qutadg'u bilik" (Yusuf Xos Hojib), "Hibat ul-haqoyiq" (Ahmad Yugnakiy), "Hayrat ul-abror" (Navoiy) singari pandnoma tipidagi asarlarining mazmun-mundarijasida didaktikaga moyillik, universallik



SCIENCE TIME

kuchlidir. O'zbek jadid adabiyotining "*Turkiy Guliston yoxud axloq*" (A.Avloniy), "*Yenigil adabiyot*" (Hamza) kabi didaktik adabiyot namunalari va jadid ma'rifatchilari barcha asarlariga xos yetakchi xususiyat bo'lgan g'oyaviy-ma'rifiy didaktika G'.G'ulom bolalar she'riyatini ham chetlab o'tmagan. Binobarin, shoir lirik merosidagi bu tamoyil bir jihatdan vorisiylik, ikkinchidan, muallif axloqiy-ma'rifiy maqsadlari bilan bog'liq tarzda yuzaga chiqadi.

METODLAR.

G'.G'ulom hayoti va ijodiy faoliyati XX asrning ikkinchi yarmidan to shukungacha adabiyotshunoslar, ilm va ijod ahli diqqat-markazida bo'lib kelgan. O'zbek adabiyotshunosligida G'.G'ulom she'riyati S.Mamajonov [2], A.Akbarov [1], B.Nazarov [6], O.Sharafiddinov [6], B.Sarimsoqov [8] singari adabiyotshunoslar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. T.Matyoqubovning maqola va tadqiqotlarida shoirning badiiy mahorati, she'riyatidagi tuyg'ular tovlanishi muayyan darajada tahlil etilgan [5.40-43]. Ammo shoirning badiiy mahorati bolalar she'riyati bilan bilan bog'liq tarzda mahsus tadqiq etilgan tadqiqotlar unchalik ko'p emas. Biz ushbu o'rinda G'.G'ulomni bolalar shoiri sifatida o'rganish orqali poetik obraz yaratish mahorati, tuyg'u-kechinma va ifodaning o'ziga xosligi haqida ayrim umumlashmalarimizni ilgari suramiz.

Ushbu maqolada qo'yilgan ilmiy muammo tadqiqiga muvofiq qiyosiy-tarixiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI.

G'.G'ulom voqea-hodisalarga munosabatda bolalar dunyoqarashidan kelib chiqadi. Ular nutqida keltirilgan vahima va loflar mohiyatidagi barcha beo'xshov tomonlar kitobxon diqqatini jalb qiladi. Natijada, bolalar tafakkuridagi noqislik, hayotiy tajribasizlik sababli ular tahayyul olamida yaralgan romantik dunyoning kulgili jihatlari ilg'anadi.

Shoirning bolalarga bag'ishlangan she'rlarida keltirilgan va ular nazarida oqillik va bilag'onlik bo'lib ko'ringan loflar real voqelikning sifat holati buzilishi, voqea-hodisalar muayyan qirrasini bo'rttirish, haddan tashqari oshirib ko'rsatish



SCIENCE TIME

asosiga qurilgan. Shu bois ham bu maqtanishlar bizda kulgi qo‘zg‘aydi. Chunki kulgililik kategoriyasining subektiv tomonini mutoyiba (yumor) tuyg‘usi tashkil etadi. Demak, she‘riy asarlarda bolalar tiynati, ular idrokiga xos jihatlar o‘z tabiiyligida ifoda etilgan. Yosh kitobxon unda xilma-xil kulgili beo‘xshovliklarni ko‘radi va anglaydi.

Shoir she‘rlarida bolalarning butun borlig‘i: hozirjavoblik qobiliyatlari, jo‘shqin his-tuyg‘ulari, ulkan orzu-umidlari va erkin tafakkur qudrati namoyon bo‘lgan. Maqtanishu loflar milliy manbalardan oziqlanadi. Boshqacharoq aytganda, G‘.G‘ulom bola nutqi, uning tabiati va milliy manba uchligini bir nuqtada yaxlitlashga erishgan.

Zotan, G‘.G‘ulom tabiatan askiya va qiziqchilikka moyil shaxs. Biroq, u kulgi vositasida hodisani shunchaki bo‘rttirib ko‘rsatmoqchi emas. Shoir yosh kitobxon ongida muqoyasa qilish qobiliyatini yuksaltirish maqsadini ko‘zlamogda. Har biri o‘z nuqtai nazarini mustaqil himoya qilayotgan bolalar hozirjavob, samimiy va so‘zga chechan. Shuning uchun ular tarafkashlik bobida g‘oliblikni saqlab qolish uchun lofning tesha tegmagan shakllarini namoyish qila oladilar.

G‘.G‘ulom markazida kulgili voqealar yotuvchi hangoma qahramonlarining tematik jihatdan rang-barang nutqini hajviy-yumoristik ruhga yo‘g‘iradi. Bizning e‘tiborimizni ularda hayotiy tajriba, sinchkovlik va zehn o‘tkirligi yetarli yuksalmaganiga jalb etadi. Baland orzular hamda amaldagi voqelik o‘rtasidagi nomuvofiqlikni ko‘rsatish asnosida, beo‘xshov holatlarga nisbatan kitobxon qalbida kulgi qo‘zg‘ay oladi. Natijada, bolalar nomuvofiq keluvchi ziddiyatning asl mohiyatini tabiiy ravishda anglab yetishadi. Bu hol ularni o‘rinsiz maqtanchoqlik illatidan tiyilishga undabgina qolmay, haqiqatni yolg‘ondan ajratish qobiliyati rivojlanishga turtki bo‘ladi. O‘z-o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantiradi. Bolalar o‘rtasida umumiy kayfiyat, ya‘ni o‘zaro inoqlikni ham yuzaga chiqaradi.

G‘.G‘ulomning “Chaqchaqlashaylik” nomli she‘riy hangomasi ekspozitsiya qismida asosiy personajlar bo‘lmish: Yusuf, Ahmad, Meli, Jo‘ravoy, Oysha, Nabi,



SCIENCE TIME

Zokir, Latofat, Turoblar yozgi tatildan maktab quchog'iga qaytgani haqida xabar beriladi. She'r badiiy vaqtiga daxldor bu qisqa bayon va tushuntirish matnning alohida kompozitsion bo'lagi sifatida ajratilmagan. U kitobxonni voqea ishtirokchilarining yozgi tatildagi hayoti, syujet voqealari kechadigan makon hamda zamon, konfliktni yuzaga keltirgan shart-sharoit bilan tanishtiradi. O'quvchini syujet voqealarini idrok etishga tayyorlaydi.

Darhaqiqat, kitobxon yilning gullarga burkangan ko'rkam oyi bo'lgan sentabrda maktab sahniga to'plangan sho'x-shodon, quvnoq bolalarni tasavvur etadi. Ularning bir-biriga gap bermay maqtanishlari, antiqa vahimayu loflariga quloq tutadi. Jumladan, Yusuf nutqida *mubolag'a* she'riy san'ati orqali uy hayvonlariga xos xususiyatlar bo'rttirib tasvirlanadi. Chunki o'zining bir echkidan besh qo'zi olgani bilan maqtanayotgan Yusuf echkilar yiliga atigi ikki marta bolalashini, uning bolasi uloq, qo'yniki esa qo'zi deb atalishini bilmaydi. Binobarin, bu antiqa "chorvador" uch oylik yozgi tatil paytida yuqoridagi ishlarni amalga oshirishi mumkin emas.

Demak, tabiiy holiga nisbatan bo'rttirilgan ushbu tasvirda bolaning hayotiy tajribasi kamligi barobarida, uning tasavvur imkoniyatlari kengligi ham namoyon bo'lgan. Chunki Yusuf haqiqatda mavjud bo'lmagan hodisaga o'rtoqlarini ishontira oladi. Shunga asoslanib, bu o'rinda G'.G'ulom mubolag'aning *ig'roq* turidan foydalangan deyish mumkin.

Ahmad, Meli va Jo'ravoy uchovining maqtanishlari bundan oshib tushadi. Ular osmono'par Tyanshan cho'qqisini zabt etishgan emish.

Ahmad, Meli, Jo'ravoy,

Kuch-qudratni ayamay

Tyanshanga chiqibdi.

Nishonkaltak tiqibdi. [20. 334.]

Anglashiladiki, bolajonlar maktabda geografiya fanidan beriladigan bilimlarni yetarlicha egallashmagan. Aks holda, ular Qirg'iziston va Xitoy chegaralarida balandligi 7439 metrni tashkil etadigan G'alaba cho'qqisini zabt



SCIENCE TIME

etish jo'n yumush emasligini tasavvur qilishardi. Qizig'i shundaki, bu uchovlonning botirligi shu bilangina cheklanmaydi:

Tusharda o'n bo'rining

Qazibdilar go'rini.

Yog'lab turib tayoqni

Savalabdilar ayiqni [20. 334.]

Tanishganimizday, ular cho'qqidan qaytishda o'nta bo'rining go'rini qazib, ayiqpolvonni rosa savalashganidan lof urishadi. Hikoya qilinayotgan badiiy voqelikka aqlan ishonish mushkul. Ular hayotda sodir bo'lishini esa tasavvur qilish ham qiyin. Demak, shoir yuqoridagi tasvirda mubolag'aning *g'uluv* deb ataluvchi turidan foydalangan. Bu bolalar yirtqich qashqir ochiqqan paytida odamga hujum qilishi mumkinligidan bexabar. Ayni paytda, ular eng yirik yirtqich bo'lmish ayiqning yo'g'on gavdasi, kuchli panjalaridan zarracha hayiqishmay, uning rosa ta'zirini berishadi.

Ko'rinadiki, bolakaylarning bo'rilar va ayiqlar haqidagi tasavvuri xalq og'zaki ijodining ertak, afsona, rivoyat, masal singari janrlari personajlari ta'sirida shakllangan. Muhimi, ular ruhiyatida yuksaklikka intilish, yovuzlik va qonxo'rlik, zulm hamda zo'rlik timsollarini mahv etish istaklari yashaydi. Bizningcha, she'rdagi lofning ishonchliligi barcha tengdoshlar uchun umumiy bo'lgan xuddi ana shu jihat orqali ta'minlangan.

Latofat bog'chaga ekan olcha birpasda gullab, hosilga kirib, pishibgina qolmay, shirin murabbo bo'lishga ulgurishida ham narsa-hodisalarning tabiiy holiga nisbatan bo'rttirib tasvirlanishiga duch kelamiz.

Bog'chaga olcha ekdim,

Qo'limda sochma chelak.

Gulladi ham, pishdi ham,

Shirin murabbo bo'ldi. [20. 335]

Jajji Kumushxon ham maqtanish bobida hech kimdan ortda qolishni istamaydi. Iyun oyida tatilga chiqqan qizaloqning o'z bog'ida birvarakayiga



SCIENCE TIME

bahorgi qovun-tarvuz, kuzgi qulupnay, anor, anjir va behi yetishtirib, bundan bir oycha oldin bozorda sotib bo'lishi kitobxonda kulgi uyg'otadi.

Bog'imda har meva bor:

Bahorgi qovun-tarvuz,

Kuzgi qulupnay, anor.

Bu yerda anjir, behi

Pishganiga oy bo'ldi.

Kolxozning bozori ham

Mevalarga boy bo'ldi. [20. 335.]

Kumushxonning birinchidan, iyun oyida bahorgi qovun-tarvuz ekishi, ikkinchidan, may-iyunda mevasi uziladigan qulupnayni kuzda pishadi, deb o'ylashi vaqt nuqtai nazaridan durust emas. Uchinchidan, anjir ikki-uch yilda, behi uch-to'rt yilda hosilga kiradi. Behining mevasi sentabr-oktabr oylarida, anorniki sentabrning ikkinchi yarmida uzib olinadi. Binobarin, Kumushxon qovun-tarvuz, qulupnay, anor, anjir va behini birvarakayiga yetishtirib avgustning boshlaridayoq bozorda sotib bo'lishi qanchalik g'ayritabiiy tuyulmasin, bularning bari uning "jajji" yoshiga munosib tasavvurlar hosilasidir. Shuningdek, qizaloqning bog'iga ekkan olti tup paxtasi chaman bo'lib ochilgani, ularni terishga ulgurolmay qiynalganida olachipor tovug'i yordamga shoshilganiyu Toshxon chizgan chiroyli suratlar Ermitajdan joy olishi ham o'ta mubolog'ali tasvirlardir.

G'.G'ulom o'rni bilan she'rda tasvirlanayotgan narsa yoki hodisaning muayyan jihatini o'ta bo'rttirib, kattalashtirib tasvir laydi. Natijada, xalq og'zaki ijodi ta'sirida yaratilgan giperbola usuli orqali kulgililik yuzaga keladi. Jumladan, she'r personajlaridan biri Oysha o'z qo'ltig'ida o'n beshta jo'ja ochish bilan qanoatlanmay, ularga don o'rnida vitamin sohib uch kunda ulkan tovuq va xo'rozlar yetishtirganidan lof uradi.

Nabi boqqan uch oylik buzoq besh yashar buqadan zo'rliigi yetmaganidek, u kuniga bir mashina o't yeb, uch chelak sut berishi giperbola usuliga asoslangan tasvirdir. Bunday holni Zokir boqqan baliqlar misolida ham kuzatamiz:



SCIENCE TIME

Zokir boqqan baliqlar

Akvariumga sig'mabdi,

Devorni yorib chiqib,

Daryo izlab yig'labdi. [20. 335]

Fantastika, kulgi va mubolag'aga asoslangan obrazlilik turi – groteskdan foydalanishda G'.G'ulom mahorati yorqin namoyon bo'ladi. Shoir reallik va hayolotni o'zaro biriktirib yubora oladi. Maqtanish va lof urish bobida o'rtoqlarini yo'lda qoldirishni ko'zlagan Turob ta'til paytida yolg'iz o'zi ukasiga kursi, shuningdek tomga chiqish uchun narvon va yana yettita kattakon divan yasaganini aytib oshkora keriladi. Bu o'rinda badiiy voqelik zamiridagi g'ayritabiilikka xos mantiqsizlik asoslanishi shart emas. Chunki tasvir usulidagi shartlilik talabiga ko'ra Turobjonning tasavvur olamidagi voqelik muhimdir. Demak, grotesk kitobxonning real voqelikni idrok qilishi, unga muayyan munosabat bildirishi, aniqroq aytganda bir paytning o'zida ham inkor qilishi, ham tasdiqlashiga imkon yaratadi. Shuning uchun hatto Turob ham, o'z yolg'onlariga chippa-chin ishonadi.

Ko'rinadiki, voqeaband syujet boshlanishiga turtki bo'lgan yuqoridagi voqealar (tugun) uch oy davomida maktabdan yiroq, oila davrasida yashagan bolalarning yozgi ta'tildagi taassurotlari bilan o'z o'rtoqlariga maqtanish istagi orqali yuzaga kelgan. Tanishganimizday, maktab bolalari uchrashuvida zohiran keskin to'qnashuv sodir bo'lmaydi. Lekin ular ruhiyatida kechayotgan o'z tengdoshlarini qoyil qoldirib, ustunlikka intilish munosabatlarni taranglashtiradi. Bu hol esa, his qilarlik darajadagi oshkora tortishuvni ham yuzaga keltirib, syujet voqealari rivojini ta'minlaydi.

G'.G'ulom "O'ylashni o'rganamiz" nomli she'rida so'lim hamda shinam bog' qo'ynida o'ynab yurgan ikki yosh – Muxtorjon va uning olti yashar singlisi Munisxon tafakkurida fikr-o'ylar uyg'onishi jarayonini ko'rsatish orqali bolalarga xos samimiy beg'uborlik, soddalik, romantik yuksaklikni esda qolarli darajada moddiylashtirishga erishadi. Jumladan, Muxtorjon zohiran har qancha jiddiy bo'lishga urinmasin, o'z tengqurlariga mutanosib tarzda o'ylaydi:



SCIENCE TIME

*Morojniydan tog' bo'lsa,
Nuqul gilos bog' bo'lsa,
Bir qozon qaymoq bo'lsa,
Tuyaday pishloq bo'lsa... [20. 285]*

Munisxon fikrlari ham jajji qizaloqning o'ylash tarziga nihoyatda vobasta:

*Bitta qo'g'irchoq bo'lsa,
Kaliti buzilmasa,
Ko'zini yumganida
Meni ham ko'rib tursa. [20. 285]*

Bolalardan biri besh yuz yil yashab, yuzlab farzandlarning katta dadasi, ikkinchisi esa mingta o'g'ilning otasi bo'lishni orzulaydi. E'tibor berilsa, ularning har biri maqtanish, lof urish jarayonida ikkinchisidan o'zishni istaydi. Muhimi, ularning ikkalovi ham inson umri benihoya qisqa ekani, orzulangan har bir narsa real hayotda bir zumda muhayyo bo'lavermasligini anglashmaydi. She'rdan Muxtorjon xarakteriga xos bobosiga havaslanish va shirinlikka o'chlik, Munisxon tabiati shakllanishidagi onasiga taqlid qilish, xususan bolajonilik singari qirralar yorqin namoyon bo'ladi. G'.G'ulom voqeaning ixcham tasvirini beradi. Biroq shoirning maqsadi shu voqea vositasida lirik kechinmani ifodalashdir. Shuning uchun shoir izchil tasvirdan qochib, aka-singil o'rtasida kechgan nutqiy muloqot (dialog) ning eng qizg'in, kulminatsion nuqtasiga urg'u beradi. Bu voqeband lirik she'r tasvir ko'lami birinchidan, Muxtorjonu Munisxonning lahzalik suhbat ta'sirida yuzaga kelgan his-tuyg'u ta'sirchan jonlantirilgani, ikkinchidan, o'quvchi o'sha holatni tasavvur qilib, lirik kechinmaga turtki bo'lgan asosni his qila olishi bilan belgilanadi.

Shoir "Kekkeymachoq Sobirjon" she'rida estetik idealiga zid xarakter sohibi – to'qqiz yashar Sobirjon Po'latov obraziga xos o'rinsiz maqtanchoqlik illati kulgi yo'li bilan inkor etiladi. G'.G'ulom so'z va amal birligiga rioya etmay, o'z iqtidorini noto'g'ri baholagan, aslida tanballigi tufayli o'rtoqlaridan ajralib qolgan bolakay obrazini chizadi. Uning konkret vaziyatda izza bo'lish holatini



SCIENCE TIME

umumestetik kategoriya bo'lgan komiklik vositasida ko'rsatadi. Shoir Sobirjon xarakteriga kinoyaviy g'oyaviy-hissiy munosabat bildirib, she'r kompozitsiyasini shunga monand tarzda quradi. G'.G'ulom kayfiyat-munosabati orqali badiiy matnda komik ziddiyat yuzaga chiqadi. Boshqacharoq aytganda, badiiylilik modusining kinoyaviylik asosiga qurilishi she'riy matn tuzilishini ham belgilab beradi.

Sobirjonning tabiati tashqi borliqdan uzilib qolgani, o'z-o'zini anglamasligi bilan xarakterlanadi. Zotan, qahramon o'ziga bergan yanglish baho ma'naviy ojizlik belgisi. Shoir uni o'z tiynatiga o'rtoqlarining nuqtai nazari bilan boqishga undaydi. Ya'ni: Jirafa qanday hayvon? ekanini bilmagan Sobirjon do'stlarining beg'araz kulgisi ta'sirida ilgari tayangan hayotiy prinsiplari, e'tiqod va a'molidan voz kechib, bilmaganlarini so'rab, o'rganib oladigan, ma'naviy-axloqiy butun bolaga aylanadi. Muhimi, G'.G'ulom kitobxonga Sobirjon tushgan ruhiy-psixologik vaziyatni his qildira oladi. G'oyaviy-ma'rifiy didaktika orqali qahramon va o'quvchi o'rtasidagi emotsional aloqani tiklashga erishadi. Bu hol katarsis hodisasi yuzaga chiqishiga imkon yaratadi.

Umuman, G'.G'ulom kulgililik estetik kategoriyasidan foydalanib umuminsoniy muammolarni umumlashtirish va badiiy tahlil etishdan aniq ma'naviy-axloqiy maqsadni ko'zlagan. Lofning mazmuniga mos mubolag'a, giperbola (tasvirlayotgan narsani kattalashtirish) va grotesk qo'llash orqali turfa ajoyibotu g'aroyibotlarga qiziquvchi kitobxon ongida mushohadakorlikni yanada chuqurlashtirishga erishgan. Muhimi, beg'araz hazil-mutoyiba yosh kitobxon ongu shuuri hamda ruhiyatiga rostgo'ylik, ulug'vorlik, olijanoblik singari fazilatlarni naqshlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Akbarov A. Shoirning hayoti. T.: Adabiyot va san'at, 1973
2. Mamajonov S. Uslub jilolari. – T.: Adabiyot va san'at, 1972
3. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. – Marseille, 2015. pp. 40-43
4. Matyakubova T.R. Lyric Experience in Gafur Gulam's Poetry. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT. 2022, Vol 2 No.



SCIENCE TIME

5. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006
6. Matyokubova, T. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied Science, 2023. 02 (118), 521-524
7. Matyokubova, T., & Yakubov, I. (2020). Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews, № 7, pp. 28-37.
8. Matyoqubova T. Shoirona tafakkur ufqi kengliklari // Zahiriddin Muhammad Boburning jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari.- Farg'ona - 2023. – B. 392 -398
9. T.Matyokubova Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati / FarDU. Ilmiy xabarlar - № 1, 2023. - B. 394-399
10. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – T.: Fan, 2004.
11. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 14-tom, – T.: Fan, 1979.
12. Sarimsoqov B. Lirikada badiiy tafsil // O'zbek tili va adabiyoti, 1992, № 5-6.
13. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T., 2004.
14. G'afur G'ulom va davr. -T.: Universitet, 2003.
15. G'afur G'ulom va Samarqand. Ilmiy maqolalar to'plami. – Samarqand: Universitet, 2003.
16. G'afur G'ulom - o'zbek adabiyotining bayroqdori. – Samarqand: Universitet, 2003.
17. G'afur G'ulom - shoir, yozuvchi va olim. – Farg'ona, 2003
18. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.1. – T.: Fan, 1983
19. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.2. – T.: Fan, 1984
20. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.3. – T.: Fan, 1984
21. O'zbek filologiyasining dolzarb muammolari. – Andijon, 2003
22. Yakubov I. Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125
23. Yakubova S. The issue of «way» in cholpon's poetry. ISJ Theoretical & Applied Science. 2023. 02 (118), 490-492
24. Yakubov I. "Boburnoma" tarixiy-memuarida Alisher Navoiy vasfi // Zahiriddin Muhammad Boburning jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari.- Farg'ona - 2023. – B. 50-58
25. Yakubov I. "Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda. / FarDU. Ilmiy xabarlar - № 1, 2023. - B. 368-373.
26. Ташанов, К. Ю. (2023). Бадий асарда нутқ ва шеърый сўзнинг икки хил образлилиги. Science time journal, 1(1), 32-43.